

YASHIL IQTISODIYOT VA YASHIL ENERGETIKANING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Shirinova Shahnoza Abdinabiyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti,

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti

Fayzullayeva Xalima Faxriddinovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti,

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti

Amonova Sevinch Xasan qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti, 5-23 logistika 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15527294>

Annotatsiya: Mazkur tezisda yashil iqtisodiyot va yashil energetikaning zamonaviy dunyodagi oʻrni va ahamiyati yoritilgan. Bugungi global iqlim oʻzgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning tugab borayotgani insoniyatni barqaror rivojlanish yoʻllarini izlashga majbur qilmoqda. Shu nuqtai nazardan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik toza, resurslarni tejovchi va ijtimoiy jihatdan adolatli iqtisodiy tizim sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil energetika esa bu yoʻnalishning muhim tarkibiy qismi boʻlib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslanadi. Tezisda quyosh, shamol, geotermal va boshqa ekologik toza energiya manbalarining jahon va Oʻzbekiston misolida qoʻllanilishi, ularning iqtisodiy va ekologik foydalari tahlil qilingan. Muallif yashil iqtisodiyot va energetikaning kelajak avlodlar uchun barqaror muhit yaratishdagi oʻrniga eʼtibor qaratgan holda, amaliy tavsiyalar ham ilgari suradi.

Kalit soʻzlar: yashil iqtisodiyot, yashil energetika, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik, barqaror rivojlanish, iqlim oʻzgarishi, atrof-muhit muhofazasi, quyosh energiyasi, shamol energiyasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda rivojlanish tobora keskin koʻrsatkichda oʻsib bormoqda, biroq rivojlanish bilan bir qatorda iqtisodiy muammolar va tabiatga yashab turgan atrof muhitga zararsiz rivojlanmoqda deya olmaymiz. Mamlakatimiz zimmasida 2030-yilgacha iqtisodiyotni barqarorlashtirish va atrof muhitni asrash borasida strategiya ishlab chiqilgan va bu iqtisodiyotni yashillashtirish va ijtimoiy hamda iqtisodiy sohalarni barqaror rivojlanishidagi muhim va murakkab komponent boʻlib xizmat qilmoqda. Jamiyat va aholi turmush tarzi yaxshilanishi iqtisodiy resurslardan unumli va minimal koʻrsatkichlarda foydalanish bu atrof muhitga zarar yetkazmasdan rivojlanishning asosiy maqsadi boʻlib xizmat qiladi. biroq bugungi zamonaviy hayot tarzi, iqtisodiy neʼmatlarni haddan tashqari koʻp sarflash ekologik zarar keltirmasdan qolmaydi. Yashil iqtisodiyot va yashil energetika bugungi kundagi keskin iqlim oʻzgarishni oldini oladi va keyingi avlodlar uchun zaxira resurs manbai sifatida strategik muqobil yoʻnalish hisoblanadi. Mamlakat barqaror rivojlanishi uchun undagi har bir jabha qaysiki ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa asosiy sohalar birgalikda bosqichma bosqich rivojlanishi zarur. Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni taʼminlashda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4 oktyabrda tasdiqlangan "2019-2030 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot" ga oʻtishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona isteʼmoli kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va

moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. Bugungi rivojlanish davrida yashayotgan insonlar atrof-muhitga ancha befarq, sababi, zamonaviy hayot va yangi texnologiyalar insonlarning kundalik yumushlari umuman olgan hayot tarzini yengillashtirmoqda, biroq jarayon zararsiz amalga oshayotgani yo'q. Atrof-muhit va tabiiy energiyaning sarfi ancha ko'paygan, bu insonlarni o'rab turgan tabiatga zarar keltiradi va yana kelajak avlodga zahira resurslarini yetib borish darajasini pasaytiradi. Umuman olganda, har bir inson o'z sog'ligi uchun befarq bo'lmasligi va ekomadaniyatini shakllantirishi zarur. Ekomadaniyat- bu insonlarning atrof-mihitga bo'lgan munosabati harakatlari, bilimlari majmuidir. Ekomadaniyat shakllantirillmasa atrof-muhit, havo, atmosfera ifloslanadi. Oqibatda insonlar uchun va kelajak avlod uchun bir qancha zararlarni keltirib chiqaradi. Masalan nafas yo'li kasalliklari qaysiki, inson hayotiga zarar keltiradigan jiddiy kasalliklar bilan kasallanganlar soni ko'payadi va mamlakat aholisining sog'lik darajasi tushib ketishini kuzatishimiz mumkin. Bu mamlakat oldida turgan dolzarb muammo ya'ni barqaror rivojlanish jarayoni bo'lmasa yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ham ancha sekinlashadi. Barqaror rivojlanish- bu jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy va ekologik ehtiyojlarini muvozanatli tarzda qondirishga qaratilgan rivojlanish konsepsiyasi bo'lib, hozirgi avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymaslikni ta'minlaydi. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo'naltirish zarur bo'ladi. Jamiyatda asta-sekinlik bilan tabiiy resurslarni reaksiya va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun asrab qolish zaruriyati to'g'risidagi g'oyalar kelajak avlod oldida ekologik ma'suliyatga asoslangan konsepsiyalar shakllanishiga olib keldi. Ushbu g'oyalarning amaliyotga tatbiqi barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali hal etilishi zarur. Barqaror rivojlanish deyilganda, aholi ehtiyojlarini to'la qondirish imkoniyatlarini esa xavf ostiga qo'ymaslikka asoslangan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanishni "ijtimoiy", "iqtisodiy", "ekologik" uchlikning o'zaro bog'liqlikda rivojlanishga asoslangan sinergetik samara hisobidan taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etish mumkin. Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv global miqyosda ijtimoiy barqarorlik ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilishi zarur bo'ladi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shu sababli, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanilayotgan rag'batlantiruvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni "yashillashtirish" jarayoni yanada faollashadi. Yashil energetikaning jahon miqyosidagi o'rni, mamlakatlardagi tajribalari va yo'nalishlari bugungi kunda global darajada barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yashil energetika e'tirof etilmoqda. Bu soha qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol, gidroenergetika, geotermal va biomassa) foydalanishni anglatadi va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan. Quyida yashil energetikaning jahon

miqyosidagi o'zni, mamlakatlardagi tajribalari va yo'nalishlari yoritib beriladi. "Energiewende" (energetika transformatsiyasi) dasturi orqali Germaniya yashil energetikaga faol o'tmoqda. Shundan kelib chiqib, bilishimiz mumkinki, Germaniya mamlakatida shamol energiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Daniya: Shamol energetikasi sohasida dunyoda yetakchi davlatlardan biri sifatida o'rin olgan. Mamlakat elektr energiyasining katta qismini shamol parklari orqali ishlab chiqiladi.

AQSH: Bu mamlakatda quyosh va shamol energetikasiga yirik investitsiyalarni kiritilayotganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Misol sifatida Kaliforniya shtati yashil energetika sohasida yetakchi bo'lib, quyosh panellari va energiya saqlash texnika va texnologiyalarini mamlakat bo'ylab keng miqyosda joriy etmoqda.

Xitoy: Xitoy mamlakati eng yirik yashil energiya ishlab chiqaruvchisi va investorlaridan biri ekanligini mamlakatlar orqasida ko'rishimiz mumkin. Quyosh panellari va shamol trubinalarini ishlab chiqarishda ham global yetakchilik qiladi.

O'zbekiston: So'nggi yillarda O'zbekistonda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarini amalga oshirmoqda.

Hindiston: Bu mamlakat dunyoda qayta tiklanadigan energiya sohasida yetakchi bo'lishni maqsad qilgan. Masalan quyosh energetikasiga Hindiston katta mablag' yo'naltirmoqda. Rejashtan shtatidagi Quyosh energetikasi parki dunyodagi yiriklaridan biridir. Xalqaro Quyosh alyansi (ISA) Hindiston ushbu alyansni tashkil etib, global darajada quyosh energetikasini rivojlantirishda yetakchilik qilmoqda.

Braziliya: Gidroenergetika sohasida Braziliya elektr energiyasining 60% dan ortig'ini gidroelektr stansiyalari orqali ishlab chiqaradi. Bu mamlakatning geografik joylashuvi gidroenergetika uchun qulaydir. Undan tashqari qand lavlagi shakarqamishdan ishlab chiqarilgan bioyoqilg'i Braziliyada transport uchun keng qo'llaniladi.

Norvegiya: Toza energiya modeli sifatida Norvegiyada elektr energiyasining 95% dan ortig'ini gidroelektr stansiyalari orqali ta'minlanadi. Undan tashqari dunyoda elektr avtomobillar soni bo'yicha yetakchi davlatdir va hukumat ushbu sohani subsidiya orqali rag'batlantiradi.

Avstraliya: Avstraliya quyosh energiyasini o'zlashtirish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning keng bo'sh hududlari va quyoshli iqlimi quyosh va shamol energetikasiga katta omkoniyatlar yaratadi. Tesla tomonidan qurilgan dunyodagi eng katta batareya saqlash tizimi Janubiy Avstraliyada joylashgan.

Har bir mamlakatning yashil energetika sohasidagi tajribalari o'zining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlariga asoslangan. Ushbu tajribalar xalqaro hamkorlik innovatsion texnologiyalar orqali butun dunyo bo'ylab barqaror rivojlanishga katta hissa qo'shmoqda.

Xulosa va takliflar.

Har bir davlat o'zining tabiiy resurslari va geografik imkoniyatlarini hisobga olgan holda yashil energetikaga oid milliy strategiyalar ishlab chiqishi lozim. Yashil energetika sohasida ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritish, yangi texnologiyalarni rivojlantirish va ular ishlab chiqarilishini rag'batlantirish zarur. Yashil energetika loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik modellarini keng qo'llash. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro Energetika Agentligi (IEA), Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA) va BMTning Barqaror

rivojlanish dasturlari doirasida yanada yaqin hamkorlik qilish. Kam rivojlangan davlatlarga yashil energetikaga o'tishda texnik va moliyaviy ko'mak ko'rsatish. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining ahamiyati haqida tushuntirish, ularni yashil texnologiyalardan foydalanishga rag'batlantirish.

Yashil energetika bugungi kunda jahon miqyosida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish atmosferaga zararli chiqindilarni kamaytirib, global isishni sekinlashtiradi, energiya xavfsizligini ta'minlaydi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Ko'plab mamlakatlar bu yo'nalishda muhim yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Germaniya va Daniya shamol energetikasida, Hindiston quyosh energiyasida, Norvegiya gidroenergetika va elektr transport sohasida yetakchi. Bunda har bir mamlakat o'zining tabiiy, iqtisodiy va texnologik imkoniyatlariga mos yondashuvni qo'llagan.

Mamlakatlarning bu boradagi muvaffaqiyatlari ko'rsatadiki, yashil energetikani rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish, texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish, kam rivojlangan davlatlarga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish orqali global darajada yashil energetikaga o'tishni jadallashtirish mumkin.

Bundan tashqari, aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish, xususiyl sektorini investitsiyalar kiritishga rag'batlantirish va energiya samaradorligini oshirish muhim yo'nalishlardir. Ta'lim tizimida yashil energetika sohasida mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Xulosa qilib aytganda, yashil energetikaga o'tish - nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishidir. Bu borada har bir davlat o'z imkoniyatlarini to'liq safarbar qilishi, global hamkorlikni rivojlantirishi va texnologik yutuqlardan samarali foydalanishi kerak. Faqat shunda kelajak avlodlar uchun toza va xavfsiz muhit yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yashil energetika global miqyosda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, energiya xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda har bir davlatning o'ziga xos tajribasi mavjud bo'lib, ular umumiy maqsadga - qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaxobov Abduraxim Vasikovich, Xajibakiyev Shuxrat Xo'jayorovich "YASHIL IQTISODIYOT" Toshkent
2. Nazarov, Q. (2021). Yashil iqtisodiyot: Nazariya va amaliyot. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.
4. OECD. (2020). Green Growth and Sustainable Development. www.oecd.org
5. Hasanov, B. (2023). "O'zbekistonda yashil energetikaning rivojlanish istiqbollari",

Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №2, 45–51-betlar.

6. World Bank. (2022). Green Energy for a Sustainable Future. www.worldbank.org

7. Islamov, M. (2020). Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror rivojlanish. Toshkent: TATU nashriyoti.